

Kasb-hunar kolleji bitiruvchilarining tashrifi

Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi sohasida zamonaviy sharoitlarda ish faoliyatini tashkillashtirishning ilg'or uslub va shakllarini egallagan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, yuqori bilimli, malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish doirasida, 2018-2019 o'quv yili bo'yicha Qibray tumani Energetika kasb-hunar kolleji bitiruvchilarini oliy ta'limda o'quv faoliyatini davom ettirishga jalb etish ishlari samaradorligini oshirish maqsadida, 2019-yil 26-mart kuni kollej bitiruvchilarining Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga tashrifi tashkil etildi.

Qibray tumani Energetika kasb-hunar kollejining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari B.Uyg'unxo'jayev, ishlab chiqarish ta'lim ustalari E.Qoraboyev hamda N.Meyliyevlar boshchiligida tashrif buyurgan 60 nafar o'quvchi-yoshlari "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakulteti ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari Sh.Berdiyev tomonidan kutib olindi.

Tashrif tasdiqlangan yo'l xaritasi asosida tashkil etilib, kollej o'quvchilari institut rektorati, ARM, O'zbekiston yoshlar ittifoqi institut Kengashi faoliyati, D-o'quv laboratoriyasi, "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakulteti faoliyati hamda fakultetning o'quv laboratoriya xonalari, ularning imkoniyatlari bilan tanishtirildi.



Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov